



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**  
**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH FILIALINING**

**B U Y R U G' I**

**Kredit tizimi akademik qarzdor talablariga qo'shimcha mashg'ulot  
o'tadigan professor-o'qituvchilarga soatboy ishlashga ruhsat berish  
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 24-iyuldagagi "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 569-sun qarori bilan tasdiqlangan "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida ta'llimning kredit tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan **buyuraman**:

1. O'zbekiton Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 24-iyuldagagi "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 569-sun qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2021-2022-o'quv yili kuzgi semestrida sirtqi ta'lim shakli bo'yicha 1-2-3-4-bosqich talabalariga o'zlashtirmagan fanlardan 2022 yil 16-21-may kunlarida o'z hisobidan qayta o'qishiga va qayta o'qish jarayoniga jaib qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosda ishlashga ruxsat berilsin

3. O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i (S.Otamuratov), sirtqi bo'lim boshlig'i (D.Mengliyev)ga:

- fanlardan chetlashtirilgan talabalarni fanning kredit miqdoridan kelib chiqqan holda o'z hisobidan qayta o'qitish uchun dars jarayonlarini tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Reja-moliya bo'limi boshlig'i (I.Vaisova) hamda bosh hisobchi (M.Dushamov)larga:

-talabalar bilan o'zlashtirmagan fan kredit (birlik)lariga mos holda qayta o'qish uchun to'lov-shartnomalari va ushbu shartnoma bo'yicha to'lovni qabul qilishni oxirgi muddati 2022-yil 13-may deb belgilansin;

- qayta o'qish uchun tushgan mablag'lar hisobidan professor-o'qituvchilar soatbay asosda amaldagi qonun hujjalariга muvofiq hisob-kirob qilinsin.



5. Sirtqi bo'lim boshlig'i (D.Mengliyev)ga

- qarzdor (tanlab yoki barcha) fanlarda qayta o'qish istagini bildirgan barcha sirtqi talabalardan arizalar yig'lishini tashkil etish. Arizalarni qabul qilishning oxirgi kuni 2022-yil 30-aprel deb belgilansin;

- akademik qarz(lar) ni yopish uchun o'z vaqtida qayta o'qish uchun pul to'lamagan talabalarni qayta o'qish o'quv jarayoniga va shunga muvofiq fanlardan yakuniy imtihon topshirishga yo'l qo'yilmasin;

- 1 va 2 guruh nogironligi, to'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar (tanlovdan tashqari o'qshga kirish huquqiga ega bo'lgan yetim, Mexribonlik uylari tarbiyalanuvchilari va b.), boquvchisi yo'q (marhum) harbiy xizmatchining farzandlarga bo'lgan hamda "temir daftari", "ayollar daftari" va "yoshlar daftari" ga kiritilgan talabalarga qayti o'qish jarayonlari bepul tashkil etilsin;

6. Devonxona va arxiv (D.Ramonova) mazkur buyruqni bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari (O.Xalmuratov) zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 24-iyuldagagi "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlapsh tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 569-sod qarori.

Direktor v.



M.I.Baydjanov

Urganch sh.

2022 y. "24" 04  
165" -sonli